

**JOANNA ROULINGNING “GARRI POTTER” HAMDA XUDOYBERDI  
TO‘XTABOYEVNING “SARIQ DEVNI MINIB” ASARLARI TEMATIKASI**

**Xayrullayeva Larisa Erkin qizi**

**Termiz davlat universiteti Adabiyotshunoslik (o‘zbek adabiyotshunosligi)  
magistranti**

**ANNOTATSIYA:** Jahon va o‘zbek bolalar adabiyotidagi fantastika doirasida yozilgan ikki badiiy asar Joan Roulingning “Garri Potter”, shuningdek Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” romanlari tipologik tahlil qilinadi. Asarlardagi umumiy xususiyatlar va farqlar, janr, mavzu, personajlar hamda adabiy vositalar nuqtai nazaridan ko‘rib chiqiladi.

**KALIT SO‘ZLAR:** fantastika, mif, prototip, hayot va ijod, ezgulik va yovuzlik, qahramonlar.

**ABSTRACT:** Two works of fiction written within the framework of world and Uzbek children’s literature are typologically analyzed by Joan Rowling’s “Harry Potter”, and the novel “Sariq devni minib” by Khudoyberdi Tokhtaboyev. General characteristics and differences in works are considered in terms of genre, theme, characters and literary means.

**KEY WORDS:** fiction, myth, prototype, life and creativity, goodness and evil, heroes.

**KIRISH:** Adabiyotda syujet va kompozitsiya muhim elementlar bo‘lib, ular asarning mazmuni, g‘oyaviy yo‘nalishi sifatida qo‘llab, insoniy munosabatlar, ijtimoiy muammolar va shaxsiy hayot ziddiyatlarini o‘rganadi. O‘zbek va jahon adabiyoti bestsellerlari bo‘lmish “Garri Potter” va “Sariq devni minib” asarlarida bolalar hayoti, ezgulik va yovuzlikning abadiy kurashi tasvirlanganligi bilan ham bir-biriga o‘xshashdir. Bu ikki badiiy adabiyotni turli millat va xalqlarga xos mif afsona, qarashlar shuningdek turli madaniyatlar ajratib tursa, bolalarga bag‘ishlanganligi birlashtirib turadi.

**MUNOZARA VA MUHOKAMALAR:**

J.K.Roulingning “Garri Potter” romanlar seriyasi zamonaviy bolalar adabiyotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, fantastika, badiiy ertaklar va tarbiya elementlarini birlashtiradi. Yozuvchi ingliz mifologiyasidan, folklor va mifologik personajlardan ilhomlangan bo‘lsa-da, o‘zining ijodiy g‘oyalari bilan asarni boyitgan. Romanlar seriyasidagi bosh qahramonlar prototipi Joanna Keyt Roulingning hayotidan olingan. Masalan, “Xagvarts” sehrgarlar va afsungarlar maktabidagi Garri Potterni do‘sti

Germionaning prototipi Joanna Roulingning o‘zi hisoblanadi.<sup>1</sup> Bosh qahramon Garri Potter esa, bir necha insonlar va ismlar yig‘ma obrazi desak ham bo‘ladi. Garrining tashqi ko‘rinishi, Roulingning bolalikdagi do‘sti, Vinterburnlik Yan Potterdan olingan. U Garri singari, bolaligida dumaloq ko‘zoynak taqib yurgan. Potter familiyasi esa, shunchaki Joanga yoqqan, chunki u o‘zining Rouling familiyasini yoqtirmagan. Garri Potter seriyasidagi motivlar, qahramonlar va syujetlar rim, skandinaviya va britaniya mifologiyasiga asoslanadi. Sehrskarlar, ertak jonzotlari, kentavr, goblinlar maxfiy olamda zamonaviy sharoitda tasvirlangan hamda fantastika elementlari bilan boyitilib o‘quvchi qiziqishini uyg‘otishi tabiiy. Sehrli olam “Garri Potter” romanlar majmuining ajralmas qismidir.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” trilogiyasi o‘zbek bolalar adabiyotida birinchi sarguzasht romanlardan hisoblanadi. Asardagi bosh qahramon Hoshimjon o‘zbek bolalarining prototipidir. Xuddi Joanna Roulingdek, Xudoyberdi To‘xtaboyev ham Hoshimjonni o‘zining hayotidan olgan bo‘lib, adib bolalar yozuvchisi bo‘lishidan oldin bir necha yillar davomida maktabda ishlagan va aynan shuning uchun Hoshimga o‘xshagan sho‘x-shaddot bolalarning ko‘pini ko‘rgan. Bular esa kezi kelib dunyo bolalar adabiyotining nodir namunasi yaratilishiga asos bo‘lgan desak mubolg‘a bo‘lmaydi. Adib o‘zbek bolalar adabiyotiga fantastika, sarguzasht, sayohat elementlarini olib kirgan va bu asarlar ham xuddi “Garri Potter” singari xalq og‘zaki ijodi hamda xalq ertaklariga asoslangan. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sariq devni minib” asari Jonni Rodari tomonidan ham tilga olinib, juda yuksak ta‘rif berilgan. To‘xtaboyevning asari jahon italyan bolalar yozuvchisi Jonni Rodarining e‘tiborini tortishi, o‘zbek adabiyoti uchun quvonarli holdir.

### **XULOSA.**

“Garri Potter” va “Sariq devni minib” romanlari o‘zbek va ingliz mifologiyasidagi prototiplarga asoslangan va qahramonlar o‘rtasidagi jangni aks ettiradi. Har ikki asarda yovuzlik va ezgulik o‘rtasidagi doimiy kurash, yosh qahramonlarning yovuz kuchlarga qarshi g‘alabasi tasvirlanadi. “Garri Potter” va “Sariq devni minib” romanlari bolalar adabiyotida o‘ziga xos va o‘xshash elementlarga ega bo‘lib, ular mifologik, fantastik va sarguzasht janrlarini birlashtiradi. Har ikkala roman ham yosh kitobxonlar uchun yangi dunyo va qahramonlar yaratgan bo‘lib, ular orasidagi g‘alaba motivi yoshlarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

---

<sup>1</sup> <https://author.today/post/489101?ysclid=m5shn6togk564575349>

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Саргузашт сардори: адабий портрет/ У.Норматов; - Тошкент: АСП. 2012. - 112 б.
2. <https://author.today/post/>
3. ziyonet.uz